



**HUMAN**  
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

[www.humansciences.uz](http://www.humansciences.uz)

**INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI**  
**JOURNAL OF HUMANITIES**  
**ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**2026**

**2-JILD | 3-SON**

**HUMANSIENCES.UZ**

*№ 3 (2)-2026*

**INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI**

**JOURNAL OF HUMANITIES**

**ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**TOSHKENT-2026**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00 – TARIX FANLARI*

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li  
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).  
E-mail: [mardonbekoff@gmail.com](mailto:mardonbekoff@gmail.com)  
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich  
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.  
E-mail: [bahrom\\_bek@mail.ru](mailto:bahrom_bek@mail.ru)  
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich  
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.  
E-mail: [zsaidboboev@yahoo.com](mailto:zsaidboboev@yahoo.com)  
ORCID: 0009-0008-3960-2427

### *08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*

Urdushev Xamrakul  
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.  
E-mail: [xurdushev@gmail.com](mailto:xurdushev@gmail.com)  
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich  
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [bahriddin.bfa@gmail.com](mailto:bahriddin.bfa@gmail.com)  
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich  
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [anvaravlokulovz@gamail.com](mailto:anvaravlokulovz@gamail.com)  
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich  
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).  
E-mail: [a.norov@ilmiy.uz](mailto:a.norov@ilmiy.uz)

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich  
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [a.ostonokulov@tsue.uz](mailto:a.ostonokulov@tsue.uz)  
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna  
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). V.b Dotsent.  
E-mail: [rustamova0302@mail.ru](mailto:rustamova0302@mail.ru)

Shadiyev Xamid Azimovich  
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [su9795744@gmail.com](mailto:su9795744@gmail.com)

Nasirov Egamkul Ismailovich  
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [e.nosirov@tsue.uz](mailto:e.nosirov@tsue.uz)  
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich  
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). Dotsent.  
E-mail: [azamatkuliboyev@gmail.com](mailto:azamatkuliboyev@gmail.com)  
ORCID: 0000-0002-3357-070X

### *09.00.00 – FALSAFA FANLARI*

Turdiyev Bexruz Sobirovich  
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [bekiuz0302@yahoo.com](mailto:bekiuz0302@yahoo.com)  
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich  
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.  
E-mail: [rauf.r.bekbaev@gmail.com](mailto:rauf.r.bekbaev@gmail.com)  
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich  
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.  
E-mail: [yusubovjaloliddin@gmail.com](mailto:yusubovjaloliddin@gmail.com)  
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).  
Katta ilmiy xodim.  
O'zbekiston.  
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).  
Dotsent.  
E-mail: [faridaeshnazarova4@gmail.com](mailto:faridaeshnazarova4@gmail.com)  
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).  
Dotsent.  
ORCID: 0009-0000-1869-9348

### 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich  
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [oybekakhmedov1978@gmail.com](mailto:oybekakhmedov1978@gmail.com)  
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna  
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [kabsam@yandex.ru](mailto:kabsam@yandex.ru)  
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich  
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [asqar@list.ru](mailto:asqar@list.ru)

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna  
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.  
E-mail: [mexrisha82@mail.ru](mailto:mexrisha82@mail.ru)  
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD). Dotsent.  
E-mail: [gulmirasharifovna@gmail.com](mailto:gulmirasharifovna@gmail.com)  
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna  
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.  
E-mail: [salaxiddinovamusharraf@gmail.com](mailto:salaxiddinovamusharraf@gmail.com)  
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD). Professor.  
E-mail: [docravshanniyazov@gmail.com](mailto:docravshanniyazov@gmail.com)  
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD). Dotsent.  
O‘zbekiston.  
E-mail: [z.sanakulov@cspu.uz](mailto:z.sanakulov@cspu.uz)  
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD).  
E-mail: [b\\_muxammed@karsu.uz](mailto:b_muxammed@karsu.uz)  
ORCID: 0009-0007-9826-175X

### 12.00.00 – Yuridik fanlar

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna  
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [feruza.mukhitdinova@gmail.com](mailto:feruza.mukhitdinova@gmail.com)  
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Ilhombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li  
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).  
Katta o‘qituvchi.  
E-mail: [jafarbak22@mail.ru](mailto:jafarbak22@mail.ru)  
ORCID: 0000-0002-9867-3363

Imomov Nurillo Fayzullaevich  
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [nurillo\\_1212@mail.ru](mailto:nurillo_1212@mail.ru)  
ORCID: 0000-0001-8090-842X

Pirmatov Otabek Shavkatovich  
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.  
E-mail: [pirmatov.otabek.89@inbox.ru](mailto:pirmatov.otabek.89@inbox.ru)  
ORCID: 0000-0002-0774-661

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich  
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.  
E-mail: [ismoilov.shuhrat80@mail.ru](mailto:ismoilov.shuhrat80@mail.ru)  
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Matkarimov Kudrat Kalandarovich  
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.  
E-mail: [qudrat1979uzb@gmail.com](mailto:qudrat1979uzb@gmail.com)  
ORCID: 000-0003-0396-4027

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich  
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.  
E-mail: [dr.profil14@gmail.com](mailto:dr.profil14@gmail.com)  
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Hakimov Komil Baxtiyarovich  
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.  
E-mail: [professorkomilkhakimov@gmail.com](mailto:professorkomilkhakimov@gmail.com)

Kadirova Moxigul Xamitovna  
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.  
E-mail: [m.kadirova@tsul.uz](mailto:m.kadirova@tsul.uz)  
ORCID: 0000-0003-1450-7542

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD). Dotsent.  
E-mail: [bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru](mailto:bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru)  
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). Dotsent.  
E-mail: [feruzaerkulovauzb@gmail.com](mailto:feruzaerkulovauzb@gmail.com)

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). E-mail: [zamira.sh@terdpi.uz](mailto:zamira.sh@terdpi.uz)  
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). E-mail: [nilufar.oymatova@gmail.com](mailto:nilufar.oymatova@gmail.com)

Eshchanova Xolida Xudayarovna  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). E-mail: [eshchanovaxolida@gmail.com](mailto:eshchanovaxolida@gmail.com)

Karshieva Dilbar Eshpulatovna  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). Dotsent.  
E-mail: [d.karshiyeva1986@gmail.com](mailto:d.karshiyeva1986@gmail.com)

Raxmatov Otabek Urinbosarovich  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD). E-mail: [rahmatov.otabek@inbox.ru](mailto:rahmatov.otabek@inbox.ru)  
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich  
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).  
Dotsent. E-mail: [ijtimoiy2017@mail.ru](mailto:ijtimoiy2017@mail.ru)  
ORCID: 0000-0003-1741-6857

---

**INSONSHUNOSLIK FANLARI** elektron  
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli  
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan  
o'tkazilgan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik  
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron  
manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## MUNDARIJA

### TARIX FANLARI

*Yusupov Shakir*

AMIR TEMUR DAVRIDA XORAZM: XX ASR TARIXSHUNOSLIGIDA SIYOSIY VA TARIXIY-  
MADANIY JARAYONLARNING YONDASHUV VA TALQINLARI .....5-10

*Ubaydullayev Oybek*

SHURABASHAT POTTERY AS ARCHAIC FORMS OF  
ANCIENT POTTERY PRODUCTION ..... 11-15

*Matkarimova Nazokat, Matnazarova Dilorom*

XORAZM XALQ SAN'ATIDA OILAVIY QADRIYATLARNING  
MADANIY-KONSEPTUAL TALQINI ..... 16-20

### PSIXOLOGIYA FANLARI

*Jurakulova Dildora*

O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQNI BARTARAF ETISH JARAYONIDA TARBIYAVIY  
YONDASHUVINING INNOVATSION IMKONIYATLARI ..... 21-24

*Konratbaeva Ayjamal*

TIL O'RGANISH JARAYONIDA GAPIRISH KO'NIKMASI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK  
OMILLAR O'RNI ..... 25-28

Article / Original Paper

## **XORAZM XALQ SAN'ATIDA OILAVIY QADRIYATLARNING MADANIY-KONSEPTUAL TALQINI**

**Matkarimova Nazokat Maksudovna.**

Ma'mun universiteti Tarix kafedrası dotsenti

Tarix fanidan falsafa doktori, PhD.

E-mail: [ms.mnm.79@mail.ru](mailto:ms.mnm.79@mail.ru)

**Matnazarova Dilorom Radjabbaevna.**

Ma'mun universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazm xalq san'atida oilaviy qadriyatlarning ifodalanishi etnografik va madaniy-antropologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Xususan, baxshichilik, xalfachilik, maqom ijrochiligi, xalq qo'shiqlari va marosimiy raqslar misolida oila, nikoh, ota-ona hurmati, avlodlar davomiyligi hamda oilaviy sadoqat g'oyalari qanday badiiy ifodalanganligi o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Xorazm xalq san'ati nafaqat estetik hodisa, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida ham faoliyat yuritib kelgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, xalq san'ati, oilaviy qadriyatlar, baxshichilik, xalfachilik, maqom, etnografiya, marosim, folklor.

## **CULTURAL-CONCEPTUAL INTERPRETATION OF FAMILY VALUES IN KHOREZM FOLK ART**

**Matkarimova Nazokat Maksudovna.**

Associate Professor of the Department of History,

Mamun University, PhD in Historical Sciences.

**Matnazarova Dilorom Radjabbaevna.**

Researcher, Mamun University

**Abstract.** This article analyzes the expression of family values in Khorezm folk art from ethnographic and cultural-anthropological perspectives. In particular, the study examines how ideas of family, marriage, respect for parents, generational continuity, and marital loyalty are artistically represented in the traditions of epic performance (bakhshi), khalfa performance, maqom music, folk songs, and ritual dances. The findings show that Khorezm folk art functions not only as an aesthetic phenomenon but also as a social institution that transmits moral and cultural values from generation to generation.

**Keywords:** Khorezm, folk art, family values, bakhshi tradition, khalfa tradition, maqom, ethnography, folklore.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i3v2y2026/n03>

**KIRISH.** Zamonaviy etnologiya va madaniy antropologiya fanlarida xalq san'ati nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy ongning shakllantiruvchi tizim sifatida talqin qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xorazm xalq san'ati o'zbek xalqining oilaviy qadriyatlari, ijtimoiy me'yorlari va axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi hamda ularni mustahkamlovchi muhim madaniy institut hisoblanadi. An'anaviy jamiyatda oila – ijtimoiy tuzilmaning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning barqarorligi jamiyatning umumiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu

sababli xalq san'atida oila bilan bog'liq qadriyatlarning ifodalanishi tasodifiy emas, balki tarixiy zarurat natijasidir.

Xalq san'ati har bir xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa hisoblanadi. O'zbek folklorining hududiy maktablari orasida Xorazm xalq san'ati an'analari o'zining qadimiyligi, boy repertuari va marosimiy tizimining uzviy bog'liqligi bilan ajralib turadi. Xorazm hududida shakllangan baxshichilik, xalfachilik, maqom ijrochiligi, xalq qo'shiqlari va marosimiy raqslar xalqning turmush tarzini, ijtimoiy munosabatlari hamda ma'naviy qadriyatlarini aks ettirib kelgan. Xususan, oilaviy qadriyatlar – beshik to'yi, sunnat to'yi va nikoh marosimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar; ota-onaga hurmat, keksalarni hurmat qilish, oilaviy baxt, farzand tarbiyasi va do'stga sadoqat kabi tushunchalar xalq san'atidagi muhim mavzular qatoriga kiradi. Bu qadriyatlar xalq qo'shiqlari, dostonlar, marosimiy ijrolar hamda ayollar folklori orqali badiiy obrazlar yordamida ifodalanib, avloddan avlodga yetkazib kelinmoqda.

### **TADVIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda madaniy-antropologik, qiyosiy-tarixiy hamda etnografik tahlil usullaridan foydalanildi. Xalq san'ati namunalari va ulardagi qadriyatlarni o'rganishda quyidagi manbalar jalb etildi:

1. Epik matnlar tahlili: Xorazm baxshilik an'alariga xos bo'lgan "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Kuntug'mish", "Alpomish" dostonlaridagi oilaviy sadoqat, nasl davomiyligi va ota-onaga hurmat motivlari tarkibiy tahlil qilindi.

2. Dala yozuvlari va intervyular: Ayollar folklori bo'lmish xalfachilik san'atidagi mavzular bevosita dala tadqiqotlari natijalariga tayangan holda o'rganildi. Xiva va boshqa hududlarda ijod qiluvchi an'anaviy xalfalar (Manzura xalfa, Yulduz xalfa, Shahlo xalfa hamda maktab o'qituvchisi S. Qozoqova) repertuaridan yozib olingan qo'shiqlar semantik tahlilga tortildi.

3. Marosimlar kuzatuvlari: To'y va nikoh marosimlari, "Yor-yor" va kelin salom odatlarining ijtimoiy amaliyotdagi funksiyasi jamiyatshunoslik mezonlari asosida baholandi.

### **NATIJALAR.**

Xorazm qadimdan Markaziy Osiyoning yirik madaniy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Hududda rivojlangan xalq og'zaki ijodi, musiqa va raqs an'analari xalqning turmush tarzini, marosimlar tizimi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettirib keladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Xorazm xalq san'ati tizimi asosan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: baxshichilik (dostonchilik), xalfachilik (ayollar folklori), maqom ijrochiligi, marosimiy qo'shiqlar va xalq raqslari [1]. Mazkur san'at shakllari, ayniqsa, nikoh marosimlari, to'y sayillari, xalq bayramlari va boshqa jamoaviy tadbirlarda muhim rol o'ynagan. Xalq san'ati orqali jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy me'yorlar, jumladan oilaviy qadriyatlar yosh avlodga yetkazilgan.

Xorazm baxshichilik maktabi o'zbek dostonchilik an'alarining muhim markazlaridan biri hisoblanadi. Xorazm baxshichilik maktabi epik tafakkurning eng muhim ifodalaridan biri hisoblanadi. Dostonlarda oilaviy qadriyatlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Nasl davomiyligi va ajdodlar merosi – epik qahramonning kelib chiqishi uning ijtimoiy maqomini belgilovchi asosiy omil sifatida tasvirlanadi.

2. Ota-onaga hurmat– qahramonning harakati ko'pincha ajdodlar sha'nini himoya qilish bilan bog'lanadi.

3. Sadoqat va oilaviy burch – Qahramonning shaxsiy manfaatlari ko‘pincha oilaviy burchdan ustun qo‘yilmaydi. Shu jihatdan baxshichilik san‘ati oilaviy qadriyatlarni epik ideal darajasiga ko‘targan madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Baxshilar tomonidan ijro etiladigan dostonlar ko‘pincha muhabbat, sadoqat va oilaviy burch mavzulariga bag‘ishlanadi. Masalan, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” [2; B.67-78], “Go‘ro‘g‘li” [3], “Kuntug‘mish” [4], “Alpomish” [5] kabi dostonlarda qahramonlarning sevgi va oilaviy sadoqat yo‘lidagi kurashlari tasvirlanadi [6]. Ushbu dostonlarda sevgiga sadoqat, ota-onaga hurmat, oilani himoya qilish, avlod davomiyligi, do‘stlik va boshqa oilaviy qadriyatlar alohida aks etadi. Xususan, Go‘ro‘g‘li dostonida va uning do‘stlari orasidagi munosabatlar ham dostonning muhim qismi hisoblanadi. Go‘ro‘g‘lining o‘z do‘stlariga xuddi otasi kabi g‘amxo‘rlik qilishini, ularga mehr ko‘rsatishini ko‘rishimiz mumkin, bu esa xalqlar o‘rtasida og‘a-inilarga xos qahramonlik tushunchasini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu obrazlar orasida o‘zaro kuchli do‘stlik va sadoqat aks etadi, ular bir-biriga og‘ir damlarda yordam beradilar, qiyinchiliklarni birgalikda yengib o‘tadilar.

O‘zbek xalq epik merosining eng yirik namunalaridan biri bo‘lgan “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar turkiy xalqlar folklorida keng tarqalgan epik an‘ana sifatida ajralib turadi. Mazkur dostonlar turli hududlarda o‘ziga xos variantlarda saqlanib qolgan bo‘lib, ular orasida Xorazm baxshichilik maktabi alohida o‘rin tutadi. Xorazm baxshilari ijrosida doston nafaqat qahramonlik va adolat g‘oyalarini, balki jamiyatning ma‘naviy-axloqiy qarashlarini, jumladan oilaviy munosabatlar, nasl davomiyligi, ota-onaga hurmat, er-xotin sadoqati va qarindoshlik birdamligi kabi qadriyatlarni ham aks ettiradi.

#### **MUHOKAMA.**

Folklorshunos olimlarning qayd etishicha, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar turkiy xalqlarning tarixiy xotirasini saqlab qolgan epik tizim bo‘lib, unda qahramon shaxsiyati ko‘pincha uning nasl-nasabiga, oilaviy kelib chiqishiga va ajdodlar merosiga bog‘liq holda tasvirlanadi [7; B.120]. Shu sababli doston syujetida qahramonning tug‘ilishi, ota-bobolari va ularning taqdiri bilan bog‘liq epizodlar muhim o‘rin tutadi. Folklorshunos H. Zarifovning ta‘kidlashicha, epik asarlarda ajdodlar sha‘nini davom ettirish motivi qahramonning axloqiy burchini ifodalovchi muhim epik element hisoblanadi [8; B.210-211]. Xalq epik merosida ota-onaga hurmat va ajdodlar xotirasini ulug‘lash muhim axloqiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Etnografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, baxshilar dostonlarni ko‘pincha to‘y marosimlari yoki xalq sayillarida ijro etganlar. Bu orqali yoshlar ongida oilaviy mas‘uliyat va sadoqat g‘oyalari mustahkamlangan [9; B.240-242].

Xorazm madaniyatida xalfachilik san‘ati ayollar folklorining muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Xorazm xalfachilik san‘ati ayollar ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, unda oilaviy qadriyatlar **emotsional va lirik shaklda ifodalanadi**. Xalfalar tomonidan ijro etiladigan qo‘shiqlar asosan nikoh marosimlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular kelin tushirish, kelin salom, beshik to‘yi kabi marosimlarda ijro etiladi. Xususan, xalfalar ijrochiligi asosan to‘ylarda “To‘yga ijozat berish” qo‘shig‘i bilan boshlanib, “Xo‘sh galdingiz!” qo‘shig‘i bilan yakunlanadi. “To‘yga ijozat turkumi qo‘shiqlariga” “To‘ylar muborak”, “Shu to‘y bo‘lsin”, “Boring, boshlang, o‘nglar bo‘lg‘oy to‘yingiz”, “To‘y boshlar”, “To‘y tabrigi”, kabilar kiradi. Ushbu qo‘shiqlarning mavzu qamrovi keng bo‘lib, qudalashayotgan xonadonlarni tabriklash, to‘yni qutlash, to‘y egalarini to‘y taomlarini olqishlash, to‘yga kelgan mehmonlarni, qiz chiqarganlarni ta‘rifu-tavsif etishga e‘tibor qaratiladi.

Zamonaviy etnologiya va madaniy antropologiya nuqtai nazaridan qaralganda, xalq san'ati jamiyatning ahloqiy me'yorlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida ham talqin qilinadi [10]. Shu jihatdan Xorazm xalq san'atida oilaviy qadriyatlarining ifodalanishini o'rganish mintaqaning madaniy antropologiyasini tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xorazm xalq san'atida "oila" tushunchasi faqat biologik yoki ijtimoiy birlik sifatida emas, balki **ramziy-ma'naviy tizim** sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu konsepsiya quyidagi semantik elementlar orqali ifodalanadi: nasl va davomiylik, sadoqat va mehr, hurmat va itoat va jamoaviy birdamlik. Mazkur elementlar xalq san'atining turli janrlarida turlicha badiiy shakllarda aks etadi. Masalan, dostonlarda bu g'oyalar qahramonlik motivlari orqali berilsa, xalfachilikda lirik va marosimiy shaklda ifodalanadi.

Xalfachilik repertuarida quyidagi mavzular keng uchraydi: kelinning ota uyidan chiqishi, yangi oilaga moslashuv, kelinlik burchlari, onalik va farzand tarbiyasi. Bu qo'shiqlarda ayolning oiladagi o'rni, sabr-toqat, sadoqat va mehr-muhabbat kabi qadriyatlar badiiy tarzda ifodalanadi [11; B.180]. Xususan, nikoh to'yi marosimlarida qizni kuyov xonadoniga kuzatish jarayonida xalfalar tomonidan ijro etiladigan "Yor-yor" qo'shig'ida ona va farzand munosabatlariga oid shunday jumlar bor:

"Aytar qizni anasi, jonim bolam, yor-yor,  
Endi ketib borasan, oyim bolam yor-yor.

Bu ayriliq Xudoni taqdiridur yor-yor,  
Taqdiringa tan barib shukr qilgin yor-yor." [12]

Yoki, kelinlarga tilak sifatida aytiladigan shunday jumlar ham bor:

"Qizil ro'mol rangidin yuzing bo'lgay yor-yor,  
Shirin-shakar odobli so'zing bo'lgay yor-yor.  
Qo'sha-qosha Quronxon, o'g'ling bo'lg'ay yor,  
Oltin qo'shiq o'ynagan qizing bo'lgay yor-yor." [13]

Shuningdek, ona va qizning xayrlashuv mazmunidagi she'riy misralari ham hech bir to'y ishtirokchisini befarq qoldirmaydi:

"Kecha-kunduz yonimda sirdosh eding yor-yor,  
Og'ir, yengil ishlarda qo'ldosh eding yor-yor.  
Qadring manga kun-kundan o'tarmakan yor-yor,  
Ayriliqni yarosi bitarmakan yor-yor" [14].

Bu janrlarda oila konsepsiyasi ko'proq ichki kechinmalar, psixologik holatlar va ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Shu sababli xalfachilikni oilaviy qadriyatlarining sub'ektiv (ichki) modeli deb baholash mumkin.

Xorazmda to'y marosimlari xalq san'atining muhim sahnasini tashkil etadi. To'y jarayonida ijro etiladigan qo'shiqlar, laparlar va raqslar yosh oilaga baxt tilash, kelin va kuyovga ijtimoiy maslahatlar berish kabi vazifalarni bajaradi. Masalan: "Kelin salom", qo'shiqlari, "Yor-yor", to'y laparlari, marosimiy raqslar bu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan:

"Yeg'lama qiz, yeg'lama, yuvongaysan, yor-yor,  
O'g'lim, qizim ko'p bo'ldi dab, quvongaysan yor-yor."

Yoki:

"Oltin oshiq o'ynagan o'g'ling bo'lg'ay yor-yor,

Kumush qoshiq o'ynagan qizing bo'lgay yor-yor" [15] kabi ezgu tilaklar bilan kuylanadigan oilaviy mazmundagi "Yor-yor"lar shular jumlasidandir. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra, bunday ijrolar yosh oilani jamiyatga tanishtirish va ularni ijtimoiy tizimga kiritish funksiyasini ham bajaradi.

#### **XULOSA.**

Xorazm xalq san'ati ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlarini va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy tizim bo'lib kelgan. Baxshichilik, xalfachilik, maqom ijrochiligi va marosimiy qo'shiqlar orqali oila, nikoh, sadoqat, ota-ona hurmati va farzand tarbiyasi kabi qadriyatlar badiiy obrazlarda ifodalanib, avloddan avlodga yetkazilgan. Shu jihatdan Xorazm xalq san'ati jamiyatda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va milliy madaniy merosni saqlashda muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References**

1. Qaromatov F.M. O'zbek xalqi muziqa merosi. XX asr. 1- kitob. T., 1978, 1982.
2. Adabiy meros. 1971, №2, 254-258-betlar; 1981, 12, 67-78-betlar.
3. Muradov M., Epos „Gorogli“, T., 1984;
4. Kuntug'mish: Doston / nashrga tayyorlovchi: M. Islomov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. – 264 b.
5. Alpomish. 2-jild. Po'lkani shoir va Ergash Jumanbulbul o'g'li. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotining matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.275.
6. Ubbiniyazova, J. (2026). EPIK QAXRAMON TABIATINING DUALLIGI (QORAQALPOQ XALQ DOSTONI«ALPAMIS» MISOLIDA). In ILMIYARXIV. <https://ilmiyarxiv.com/index.php/preprint/preprint/view/28>
7. Mirzayev T. O'zbek xalq dostonlari. – Toshkent: Fan, 1999.
8. Rajabov I. O'zbek xalq musiqasi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
9. Zarifov H. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1985.
10. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
11. Levi-Strauss C. Structural Anthropology. – New York, 1963.
12. Snesev G.P. Relikty domusulmanskix verovaniy u uzbekov Xorezma. – Moskva, 1969.
13. Dala yozuvlari. Qozoqovq Saodatjon. Maktab o'qituvchisi.
14. Dala yozuvlari. Manzura Xalfa. Xiva shahri.
15. Dala yozuvlari. Jumaniyozova Yulduz xalfa.
16. Dala yozuvlari. Salayeva Shahlo xalfa.



SAYT: <https://humansciences.uz>

# HUMANSIENCES.UZ

*№ 3 (2)-2026*

## INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

## JOURNAL OF HUMANITIES

## ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

**INSONSHUNOSLIK FANLARI** elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)